

**“Davlat mulki” axborot tizimi uchun texnik topshiriq qismini (“QT3”)  
ishlab chiqish bo‘yicha  
TEXNIK TALABLAR**

Korxonalar (Bajaruvchi) “Davlat mulki” axborot tizimi (*keyingi o‘rinlarda - AT*) uchun texnik topshiriq qismini ishlab chiqish bo‘yicha ishlarni o‘z zimmasiga olishi kerak.

Bajaruvchi tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlarning minimal ro‘yxati:

Texnik topshiriqni ishlab chiqish jarayonida amaldagi me‘yoriy hujjatlarga asosan amalga oshirilishi lozim.

Jumladan:

O‘zDst 1987:2018 Axborot texnologiyasi, “Axborot tizimini yaratish uchun texnik topshiriq” davlat standarti, O‘zDst 1986:2018 Axborot texnologiyasi, “Axborot tizimlari. Yaratish bosqichlari”, O‘zDst 1985:2018 Axborot texnologiyasi, “Axborot tizimlarini yaratishda hujjatlarning turlari, komplektligi va belgilanishi” davlat standartlari asosida ishlab chiqishi;

Tizim arxitekturasi, uning strukturasi va ishlashiga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish, foydalanish ssenariylarini tavsiflash, xavfsizligiga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish:

1. AT uchun ishlab chiqilgan texnik topshiriq talablarini to‘liq inobatga olish;
2. Ishlab turgan amaldagi ATni barcha funktsionalligi va ma‘lumotlar bazalarini to‘liq qamrab olish (*Elektron hukumatning axborot tizimlari va resurslari Yagona reestri - <https://reestr.uz/projects/106?type=passport>*);
3. Ishlab turgan amaldagi ATni vazirlik va idoralar bilan elektron ma‘lumot almashishlarni inobatga olish;
4. AT bajaradigan funksiyalarga (vazifalarga) qo‘yiladigan talablarni batafsil yoritish.
5. ATning umumiy modelini hamda bpmn sxema (maket)larini tavsiflash.
6. Texnik topshiriqni tegishli vakolatli organlarning e‘tiroz va takliflari asosida o‘zgartirishlar kiritish va kamchiliklarni bartaraf etish hamda ekspert xulosasini olinishida Buyurtmachiga ko‘maklashish.
7. Ishlab chiqiladigan axborot tizimda bo‘lishi kerak bo‘lgan modullar:
  - Bankrot korxonalar va sud boshqaruvchilarni hisobini yuritish;
  - Davlat mulkini hisobini yuritish;
  - Davlat aktivlarini sotishdan oldin tayyorlash va sotishni nazorat qilish hamda davlat ob‘ektlarini hisobini yuritish;
  - Davlat ishtirokidagi korxonalarining biznes-reja ko‘rsatkichlari va samaradorlik muhim ko‘rsatkichlari monitoringi;
  - Xususiylashtirilgandan keyin ijtimoiy majburiyatlarni va investitsiya kiritilishi samaradorligini monitoring qilish;
  - Moliyaviy iqtisodiy tahlil va iqtisodiy nochor korxonalarini monitoring qilish;

- Davlat muassasalarini hisobini yuritish;
- Korporativ boshqaruv;
- Sotilgan davlat aktivlari bo'yicha tushumlar moliyaviy monitoringi;
- Bo'sh turgan ob'ektlarni hisobini yuritish;
- ATni administrator moduli (AT modullarini nazorat qilish, foydalanuvchilarni boshqarish va boshqalar);

8. Yuqoridagi keltirilgan modullar ma'lumotlarini bir nuqtada korxonalar to'g'risida to'liq ma'lumotlarni jamlash orqali ularni pasportlarini shakllantiruvchi va shakllangan ma'lumotlarni grafik, jadvallar va boshqa shakllarda ko'rish hamda yuklab olish imkoniyatlarni kiritish;

9. Agentlik tomonidan ko'rsatiladigan barcha elektron davlat xizmatlarini, korxonalar va tashkilotlar tomonidan Agentlikka topshiradigan hisobot va ma'lumotlarni hamda Agentlikning ochiqqlanadigan ma'lumotlarini bitta nuqtada birlashtirgan veb-sayt ([my.davaktiv.uz](http://my.davaktiv.uz)).

10. Yuqoridagi keltirilgan modullarga mas'ul bo'lgan Davaktiv agentligining tarkibiy bo'linmalar birgalikda ishlab, berilgan takliflar asosida texnik topshiriq qismi ("ЧТ3")ni ishlab chiqish.